

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2020 - yilning yanvar-iyunida Fargona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rnlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 16 857,3 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019 - yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 100,5 % ga o`sdi. YaHM deflyator indeksi 2019 - yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Fargona viloyatining qo'shgan hissasi 6,6 % ga yetdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mldr. so'm		2019-yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun	
I. YaHM		15 100,2	16 857,3	100,5
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 206,5	16 347,0	100,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	893,7	510,3	97,3
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 206,5	16 347,0	100,7
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4 250,0	5 036,5	105,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 817,9	5 367,7	97,7
	sanoat	3 884,8	4 271,7	97,1
	qurilish	933,1	1 096,0	100,2
Xizmatlar		5 138,6	5 942,8	99,8

		Mld. so'm		2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 145,8	1 296,0	99,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	880,0	933,0	98,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 112,8	3 713,8	100,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 474,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga kamaydi.



Yanvar-iyun oyalarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,9 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 30,8 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 26,1 % dan iborat bo`lib, 1,2 % ga kamaydi, qurilishniki esa 0,1 % punktga o'sdi va 6,7 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 36,4 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,2 % punktga o'sdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi

(jamiga nisbatan % da)


		2019-yil	2020-yil
I. YalM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	94,1	97,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	5,9	3,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati			
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	29,9	30,8
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	33,9	32,8
	sanoat	27,3	26,1
	qurilish	6,6	6,7
Xizmatlar			
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,1	7,9

2019-yil 2020-yil


	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	5,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,9	22,8





Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog`liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 105,3 %, qurilishda - 100,2 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ida - 97,1 % va xizmatlar sohasida - 99,8 % solishtirma narxlarda hajmlarning kamayishi kuzatildi. Xizmatlar sohasi tarkibida solishtirma narxlarda hajm o'zgarishlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 99,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi - 7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa - 98,1 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida - 100,5 % dan (22,8 %) iborat bo`ldi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tqan yilning mos davriiga nisbatan % da)**




2020-yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, qurilish tarmoqlari YaHMning mos ravishda - 1,5 f.p. va 0,01 f.p. ga o'sishiga hissa qo'shdi. Sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasi mos ravishda - 0,7 f.p. va - 0,1 f.p. salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YaHM - 0,2 f.p. ga kamaydi.




FARG`ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,1 % tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda - 117,2 % va xizmatlarda - 115,9 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

